

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 657.6-048.32:334.722.8(575.1)

OCHILOV FARXODJON SHAVKATJON O'G'LI

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MAJBURIYATLAR HISOB VA
AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA

Ilmiy maslahatchi: i.f.d., prof. I.N.Qo'ziyev

Toshkent shahri – 2025-yil

MUNDARIJA:

KIRISH	3
I BOB MAJBURIYATLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY ASOSLARI	16
1.1-§. Majburiyatlar hisobining nazariy asoslari	16
1.2-§. Majburiyatlar auditini o'tkazish bosqichlari va yo'nalishlari	32
I bob bo'yicha xulosa	51
II BOB MAJBURIYATLAR HISOBI VA AUDITINING METODOLOGIK MUAMMOLARI	52
2.1-§. Majburiyatlarni tan olish, baholash va ularga doir axborotlarni ochib berishning uslubiy jihatlarini	52
2.2-§. Buxgalteriya hisobida moliyaviy majburiyatlarni tan olish va baholash xususiyatlari	62
2.3-§. Baholangan majburiyatlar auditida ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash	71
II bob bo'yicha xulosa.	79
III BOB MAJBURIYATLAR HISOBI VA AUDITINING AMALIY JIHATLARI	80
3.1-§. Majburiyatlar hisobining amaldagi holati	80
3.2-§. Majburiyatlar auditida tahliliy amallarni qo'llash yo'nalishlari.	93
3.3-§. Don mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda to'lovga layoqatlilikning ekonometrik tahlili	115
III bob bo'yicha xulosa.	138
IV BOB MAJBURIYATLAR AUDITINING AXBOROT TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	140
4.1-§. Auditorlik tekshiruvlarida faoliyat uzluksizligini baholashning axborot ta'minotini takomillashtirish	140
4.2-§. Auditorlik tekshiruvlarida moliyaviy hisobotlardagi qiyosiy axborotlardan foydalanish yo'nalishlari	148
4.3-§. Majburiyatlar hisobining aniqligini baholashda ichki aydit ma'lumotlaridan foydalanish yo'nalishlari	163
IV bob bo'yicha xulosa.	174
V BOB MAJBURIYATLAR HISOBI VA AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	176
5.1-§. Majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish masalalari	176
5.2-§. Majburiyatlar auditini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish	204
5.3-§. Majburiyatlar auditida baholangan qiymatlar to'g'riligini aniqlash yo'nalishlari	212
V bob bo'yicha xulosa.	220
XULOSA	222
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	226
ILOVALAR	239

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida aksiyadorlik jamiyatlari moliya-xo‘jalik faoliyatining samarali tashkil etilmasligi, ularda biznes-jarayonlarning tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi natijasida o‘z mablag‘lari miqdori kamayib, korporativ qarzlari miqdori oshib bormoqda. Xususan, Xalqaro moliya korporatsiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, «2023 yilda jahon miqyosida hukumat, uy xo‘jaliklari, moliyaviy va nomoliyaviy korporatsiyalarning qarzi 300 trln. AQSh dollarigacha o‘tib, jahon yalpi ichki mahsulotining 349 foizini tashkil qilgan. Shundan jahonning yirik korporatsiyalarida majburiyatlar miqdori Toyota Motorsda 217 mlrd. AQSh dollari, Folksvagenda 166 mlrd. AQSh dollari, Doych Telekomda 115 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan»¹. Mazkur korporatsiyalarda majburiyatlar miqdorining oshib borishi ularda qarz inqirozi xavfini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu sababli aksiyadorlik jamiyatlarining majburiyatlarini kamaytirish hamda ularni oqilona boshqarishda buxgalteriya hisobi va auditga alohida e’tibor qaratish hamda uning nazariy, metodologik va amaliy muammolarini bartaraf etishda fundamental hamda amaliy tadqiqotlar sifati va salmog‘ini oshirish lozim.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi hamda jahon bozorida raqobatning keskinlashuvi sharoitida majburiyatlar hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqotlar natijasida aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlarning tahliliy hisobini yuritish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida majburiyatlarni tasniflash, qarz mablag‘lari hisobi va tahlilini takomillashtirish, majburiyatlar auditini tashkil qilish, ichki nazorat tizimini o‘rganish hamda baholash, majburiyatlar auditida firibgarlik bilan bog‘liq risklarni aniqlash masalalari o‘z yechimini topgan. Biroq, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida uzoq va qisqa muddatli ijara majburiyatlari hisobini yuritish, amortizatsiyalangan qiymat bo‘yicha baholanadigan moliyaviy majburiyatlarni moliyaviy holat to‘g‘risida hisobotda aks ettirish hamda moliyaviy hisobot auditini

¹ <https://gfmag.com/data/companies-largest-debt-world/>

ishonchliligini ta'minlashda baholangan majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti va rezervlardan foydalanish samaradorligini baholash mezonlarini qo'llash bilan bog'liq dolzarb masalalar hanuzgacha to'liq o'z yechimini topmagan.

O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning moliyaviy holatini yaxshilash hamda qarz mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha qator islohotlar olib borilmoqda. Xususan, «davlat kafolati uchun to'lovlarni qarz oluvchi korxonalarning moliyaviy holati bo'yicha xatarlar darajasidan kelib chiqqan holda belgilash»² vazifasi qo'yilishi aksiyadorlik jamiyatlarida qarz mablag'laridan samarali foydalanish, ularning hisobi va auditini tizimli tashkil etishni taqozo etadi. Mazkur holatlar aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va auditini xalqaro standartlar talablari asosida tashkil qilish, foyda yoki zarar orqali haqqoniy qiymatda baholanadigan uzoq va qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlar hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarda majburiyatlarni amortizatsiyalangan qiymat bo'yicha aks ettirish, majburiyatlar auditida uchraydigan muhim buzib ko'rsatishlar riskini aniqlash hamda ularni kamaytirish, majburiyatlar auditida faoliyat uzluksizligini baholash jarayonini takomillashtirish borasida tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi». <https://www.lex.uz>.